INKLYUZIV TA'LIMDA O'QUVCHILAR AKADEMIK-IJTIMOIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

ChDPU Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) **Sh.X.Kobilova**
ORCID iD 0009-0001-4091-1840
kabilovashaxnoza4@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan inklyuziv didaktik yondashuvlar tahlil qilingan. Akademik va ijtimoiy-kommunikativ faoliyatlarning o'zaro uyg'unligi, ularni bolalarning nozologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish hamda psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, vizual-sensor vositalar, interaktiv texnologiyalar va rag'batlantirish usullarining ichki motivatsiyani kuchaytirish, diqqat barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy faollikni rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni asoslangan.

Kalit so'zlar: inklyuziv didaktika, individual ta'lim ehtiyojlari, akademik faoliyat, ijtimoiy-kommunikativ faoliyat, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, motivatsiya, vizual-sensor vositalar, interaktiv texnologiyalar, ijtimoiy faollik, ta'lim samaradorligi.

Аннотация. В статье рассмотрены инклюзивно-дидактические подходы, направленные на удовлетворение индивидуальных образовательных потребностей детей с особыми образовательными потребностями. Раскрыта роль сочетания академической и социально-коммуникативной деятельности, их организации с учётом нозологических особенностей обучающихся, а также механизмов психолого-педагогической поддержки. Обосновано значение визуально-сенсорных средств, интерактивных технологий и методов стимулирования в повышении внутренней мотивации, устойчивости внимания, социальной активности и эффективности обучения.

Ключевые слова: инклюзивная дидактика, индивидуальные образовательные потребности, академическая деятельность, социально-коммуникативная деятельность, психолого-педагогическая поддержка, мотивация, визуально-сенсорные средства, интерактивные технологии, социальная активность, эффективность обучения.

Abstract. This article examines inclusive didactic approaches aimed at meeting the individual educational needs of children with special educational needs. It highlights the integration of academic and socio-communicative activities, their organization according to learners' disability-related characteristics, and the role of psychological and pedagogical support mechanisms. The study also substantiates the importance of visual-sensory tools, interactive technologies, and motivational strategies in enhancing intrinsic motivation, sustaining attention, promoting social participation, and improving learning outcomes.

Keywords: inclusive didactics, individual educational needs, academic activities, socio-communicative activities, psychological and pedagogical support, motivation, visual-sensory tools, interactive technologies, social participation, learning effectiveness.

Ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan faoliyat turlari o‘z tarkibiga ko‘ra akademik va ijtimoiy-kommunikativ yo‘nalishlarga bo‘linadi. Akademik faoliyatga matn ustida ishlash, mantiqiy va tadqiqotchilik topshiriqlarini bajarish, kognitiv xaritalar tuzish va didaktik o‘yinlar kirsa, ijtimoiy faoliyat jamoaviy loyihalar, rolli vaziyatlar va tengdoshlar ijtimoiy qamrab oladi. Ushbu faoliyat turlari majmui bolaning nozologik xususiyatidan kelib chiqqan holda perseptiv, mental va amaliy-harakatli shakllarda tasniflanadi. Har bir faoliyat turi o‘quvchining faqatgina akademik bilimini oshirishga emas, balki uning his-tuyg‘u sohasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Inklyuziv didaktikada ushbu faoliyatlarning qat’iy ierarxik tuzilishi bolaning toliqish darajasini boshqarish imkonini beradi. Pirovardida, ehtiyoj va faoliyat o‘rtasidagi mutanosiblik ta’lim oluvchining ijtimoiy faolligini ta’minlovchi ichki omilga aylanadi.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni faollikka chorlash va ularning diqqatini barqaror ushlab turish maxsus psixologik-pedagogik mexanizmlar tizimini talab qiladi. Bunda ichki motivatsiyani uyg‘otuvchi tashqi rag‘batlantiruvchi vizual-sensor omillar muhim rol o‘ynaydi. Vositalar sifatida multimediali interaktiv dasturlar, sensorli taktil panellar, didaktik qo‘llab-quvvatlash kartalari va ramziy mukofotlash tizimlaridan keng foydalaniladi.

Psixologik kontekstda bolaning faolligi uning muvaffaqiyat qozonish ehtimoli naqadar yuqori ekanligini anglashi bilan bevosita bog‘liqdir Pedagog bolaning har bir ijobiy intilishini o‘z vaqtida verbal va noverbal (issiq nigoh, tabassum, imo-ishora) qo‘llab-quvvatlashi zarur. Bu mexanizmlar bolaning ichki qo‘rquv va passivlik holatidan chiqib, o‘quv muloqotining faol sub’ektiga aylanishiga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’lim oluvchilarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishi ularning leksik bazasi va nutqiy kompetensiyasining boyligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Nutqida yoki eshitishida nuqsoni bor, shuningdek, kognitiv rivojlanishi sust bo‘lgan bolalarda so‘z boyligining cheklanganligi fan tushunchalarini idrok etishda jiddiy to‘siq yaratadi. Ushbu muammoni bartaraf etish strategiyalari o‘z ichiga “kontekstual lug‘atlar”, vizual glossariylar, Mnemonika usullari va so‘z o‘yinlarini oladi.

Adaptiv ta’lim muhitida kundalik akademik faoliyat tizimli va maqsadli mashqlar majmuiga asoslanishi shart. Ushbu mashqlar oddiy takrorlash emas, balki bolaning aniq bir nuqsonini tuzatishga va ortda qolishni kompensatsiya qilishga yo‘naltirilgan korreksion xususiyatga ega bo‘lishi lozim. Didaktik mashqlar tizimi mikro-qadamlar prinsipi asosida quriladi, bunda har bir keyingi topshiriq oldingisidan juda kichik va yengil farq bilan murakkablashadi.

Mashqlarning tuzatishga va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilganligi bolaning analizatorlar tizimini faollashtiradi va neyronlararo yangi bog‘lanishlarni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda o‘quvchiga xato qilishga imkon berilishi orqali muhit mashq maydoniga aylanadi. Har bir xato pedagogik tuzatish uchun yangi didaktik material sifatida transformatsiyalanadi. Mashqlarning tizimliligi bolada avtomatizm va mustaqil harakat qilish ko‘nikmasini shakllantirishning bosh mexanizmidir.

Korreksion-akademik mashqlarni modellashtirish jarayonida real hayotiy vaziyatlar bilan sun’iy yaratilgan muammoli topshiriqlar o‘rtasida mustahkam integratsiya ta’minlanishi zarur. Hayotiy vaziyatlar (masalan, do‘konda xarid qilish, shifokor qabuli, jamoat transportidan foydalanish) bolaga bilimlarning amaliy ahamiyatini ko‘rsatib, uning ijtimoiy ko‘nikmalarini oshiradi. Sun’iy tashkil etilgan muammoli vaziyatlar esa (masalan, yetishmayotgan ma’lumotni

topish, ziddiyatli fikrlarni solishtirish) bolaning divergent fikrlashini va kognitiv moslashuvchanligini faollashtiradi. Ushbu ikki yondashuvning uyg‘unligi bolada bilimlarni bir sohadan ikkinchi sohaga ko‘chirish (transfer) layoqatini shakllantiradi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish davomida alohida ehtiyojli bola tengdoshlari bilan muloqotga kirishishga majbur bo‘ladi, bu esa ijtimoiylashuv sur’atini tezlashtiradi. Bunday modellashtirish ta’lim jarayonini jonli, qiziqarli va natijador fenomenga aylantiradi.

Zamonaviy inklyuziv darsning tuzilishi har bir bosqichda (tashkiliy qism, yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va refleksiya) akademik va ijtimoiy faoliyatning uzviy integratsiyalashuvini talab etadi. Dars boshlanishida ijtimoiy psixologik iqlim yaratilsa, yangi mavzuni o‘zlashtirish jarayonida u akademik hamkorlikka (juftliklarda ishlash) ko‘chadi. Mustahkamlash bosqichida esa bolalar birgalikda didaktik muammoni hal qiladilar, bu yerda akademik bilim ijtimoiy muloqot vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday dinamika bolaning diqqati tez tarqalishining oldini oladi va uning ish qobiliyatini dars davomida bir maromda ushlab turadi. Akademik va ijtimoiy komponentlarning uyg‘unligi darsning an’anaviy monotonlikdan ijtimoiy hamkorlik maydoniga aylantirishni taqozo etadi. Didaktik yondashuvning bunday izchilligi ta’lim oluvchining darsdan charchab qolmasligini kafolatlaydi.

Inklyuziv ta’limda baholash instrumentlari an’anaviy raqamli ko‘rsatkichlardan ko‘ra psixologik jozibador va motivatsion ta’sirchan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Baholash vositalari sifatida "Yutuqlar daraxti", raqamli va vizual portfoliolar, rag‘batlantiruvchi matritsalar va kompetensiyaviy nishonlardan foydalaniladi. Bu instrumentlar bolaning xatolarini urg‘ulamay, balki uning kechagi kuniga nisbatan qilgan kichik o‘sishini va ijtimoiy faolligini vizual tarzda namoyon etadi. Natijalarning bunday ko‘rgazmali ifodalanishi alohida ehtiyojli bolada ijobiy emotsional reaksiya va o‘ziga bo‘lgan ishonchni uyg‘otadi. Baholashning ta’sirchanligi uning o‘z vaqtida va bolaga tushunarli tilda, shaffof mezonlar asosida berilishi bilan belgilanadi. Jozibador baholash tizimi bolani qo‘rqituvchi omil emas, balki uni yangi marralarga undovchi kuchli pedagogik stimuldir.

Ta’lim muassasasida adaptiv va modifikatsiyalangan resurslarning (maxsus dasturiy ta’minotlar, ergonomik mebellar, taktil kitoblar, ko‘p darajali didaktik tarqatmalar) yetarli miqdorda bo‘lishi inklyuzivlikning moddiy va mazmuniy sifatini kafolatlaydi. Biroq resurslarning shunchaki mavjudligi emas, balki ularning akademik ta’sirchanligi va bolaga mosligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Adaptiv resurs har bir darsning maqsadiga va bolaning individual rivojlanish dasturiga (IRD) qat’iy sinxronlashtirilgan bo‘lishi lozim. Resurslarning yetarliligi o‘qituvchiga dars davomida didaktik modifikatsiya qilish va vaziyatga qarab ta’lim uslubini tez o‘zgartirish imkonini beradi. Akademik ta’sirchanlik esa bolaning ushbu resurs vositasida axborotni mustaqil qayta ishlay olishi va o‘zlashtirishi bilan o‘lchanadi. Mazkur omil ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini yangi bosqichga ko‘taruvchi muhim katalizatordir.

O‘quvchilarning hamkorlikdagi akademik va ijtimoiy faoliyati inklyuziv ta’lim muhitining xavfsizlik va bag‘rikenglik darajasini belgilovchi bosh mezon hisoblanadi. Kichik guruhlarda sog‘lom va alohida ehtiyojli bolalarning birgalikda ishlashi o‘zaro yordam, empatiya va jamoaviy mas’uliyat tuyg‘ularini yuzaga keltiradi. Bunday muhitda har qanday tajovuzkorlik, bulling va ijtimoiy ajralib qolish holatlari tabiiy ravishda barham topadi. Hamkorlik jarayonida alohida ehtiyojli bola o‘zini xavf ostida emas, balki do‘stona va himoyalangan ijtimoiy kokon ichida his qiladi. Guruh a’zolarining muvaffaqiyati bir-birlarining harakatlariga bog‘liq bo‘lganligi sababli,

sog‘lom bolalar alohida ehtiyojli tengdoshlarini qo‘llab-quvvatlashga intiladilar. Bu esa sinfda demokratik va insonparvarlik qadriyatlarining amaliy g‘alabasini ta’minlaydi.

Ta’lim oluvchiga o‘z bilim va ko‘nikmalarini o‘ziga qulay va erkin shaklda namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratilishi uning refleksiv realizatsiya bosqichiga o‘tishining bosh shartidir. Nutqida muammosi bor bola o‘z bilimini yozma ravishda, rasmlar, taqdimotlar yoki ramziy modellar orqali ko‘rsatishi mumkin bo‘lishi kerak. Bunday moslashuvchanlik boladagi "javob bera olmaslik xavotirini" butunlay yo‘qotib, uning ichki erkinligini ta’minlaydi. O‘z yutug‘ini namoyon eta olgan bola keyingi bosqichda o‘z faoliyatiga tanqidiy baho berish va "Men nimani o‘rgandim va yana nimalarni bajarishim kerak?", degan refleksiv savollar ustida fikr yuritishni boshlaydi. O‘z-o‘zini anglash va refleksiya ko‘nikmasi bolani tashqi bahoga qaramlikdan qutqarib, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Bu jarayon inklyuziv ta’limning ma’naviy va pedagogik maqsadlaridan biridir.

Inklyuziv o‘quv muhitida akademik moslashuvchanlikni muvaffaqiyatli ta’minlash bevosita pedagogning yuqori darajadagi metodik kompetensiyasi va kasbiy mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki maxsus pedagogika, surdopedagogika, tiflopedagogika va oligofrenopedagogika asoslaridan chuqur xabardor bo‘lishi shart. U dars jarayonida vaziyatga qarab ta’lim usullarini tezkorlik bilan o‘zgartirish, didaktik materiallarni bola ehtiyojiga ko‘ra qayta loyihalash malakasiga ega bo‘lishi lozim. Metodik mahorat o‘qituvchiga sinfdagi xilma-xillikni muammo emas, balki ta’lim sifatini oshiruvchi turtki sifatida ko‘rish imkonini beradi. Pedagogning doimiy ravishda o‘z malakasini oshirib borishi va yangi innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishi tizimning barqarorligini ta’minlaydi. O‘qituvchining kasbiy eruditsiyasi inklyuziv muhitning xavfsizligi va samaradorligini kafolatlovchi bosh omildir.

"Teskari sinf" innovatsion yondashuvi inklyuziv ta’limda akademik moslashuvchanlikni ta’minlashning eng istiqbolli va adaptiv usullaridan biridir. Bu yondashuvda bolalar yangi mavzuning nazariy qismini (videodarslar, audiomateriallar, vizual konspektlar shaklida) uyda, o‘zlari uchun qulay bo‘lgan vaqtda va tezlikda, ota-onalari ko‘magida mustaqil o‘rganadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabdagi dars vaqti esa quruq eshitish emas, balki bilimlarni amaliy mashqlar, loyihalar va ijtimoiy hamkorlik orqali mustahkamlashga yo‘naltiriladi. Bunday sharoitda baholash tizimi ham butunlay o‘zgarib, unda bolaning uydagi tayyorgarlik jarayonidagi faolligi va sinfdagi ijtimoiy hamkorlik darajasi (kompetensiyaviy baholash) ustuvor ahamiyat kasb etadi. Baholashda o‘quvchining raqamli topshiriqlarni bajarish dinamikasi va guruhdagi rolli ishtiroki mezon sifatida olinadi. "Teskari sinf" modeli ta’limning vaqt va makon chegaralarini kengaytirib, alohida ehtiyojli bolaning zo‘riqishsiz ilm olishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva B. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida). Ped.f.dokt. ... diss. Toshkent. – 2006. 265 b.
2. Alicia Broderick, Heeral Mehta-Parekh, D. Kim Reid. Differentiating Instruction for Disabled Students in Inclusive Classrooms. - Broderick, Alicia.- 2005.-Vol.44.- №3.- R.194-202
3. Kobilova Sh.X. Inklyuziv ta’lim makonini barqarorlashtirish hamda uning pedagogik shart-sharoitlarini muvofiqlashtirishning muammo va yechimlari // Ta’lim, fan va innovatsiya. 6-son, 2022.-B. 118-119.

4. Белан Е.П. Стратегическое управление развитием регионалного университета как исследователско-ориентированного вуза: дис. … д-ра пед. наук. – Ростов-на-Дону, 2007. – 380 с
5. Гурева, Д.Х. Теоретическое обоснование психологической безопасности образовательной среды / Д.Х. Гурева // Вестник Самарского государственного технического университета. – №3(23). – Самара, 2014. – С. 57–61.